

**OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH USULLARINING NAZARIY ASOSLARI**

**Normuxametov Dilmurod Faxriddin O'g'li**

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti,  
Iqtisodiyot fakulteti talabasi*

**Uralov Baxtiyor Maxmudovich**

**Javmanov Jamshed Abdusamatovich**

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti,  
Iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi kafedrası assistentlari*

**Annotatsiya:** *Mamlakatimizning ravnaqi uchun milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida ilm, fan hamda ishlab chiqarish sohalarini ilmiy-innovatsion integratsiyasini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Bu yo'nalishda mustahkam huquqiy baza shakllantirish bo'yicha ma'lumotlar berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *ta'lim sifati, ta'lim xizmati, Kadrlar tayyorlash sohasi raqamlashtirish, raqamli texnologiyalar, pedagogik innovatsiyalar, ta'limda innovatsiya*

**Аннотация:** *Для развития нашей страны, в условиях модернизации национальной экономики, особое значение имеет развитие научно-инновационной интеграции науки, науки и производственной сферы. В этом направлении дается информация о формировании прочной правовой базы.*

**Ключевые слова:** *качество образования, образовательная услуга, цифровизация подготовки кадров, цифровые технологии, педагогические инновации, инновации в образовании.*

**Abstract:** *For the development of our country, in the context of modernization of the national economy, the development of scientific and innovative integration of science, science and the production sector is of particular importance. In this direction, information is provided on the formation of a solid legal framework.*

**Key words:** *quality of education, educational service, digitalization of personnel training, digital technologies, pedagogical innovations, innovations in education.*

Ta'lim sifatini oshirish, butun ta'lim tizimini modernizatsiyalashning yetakchi mexanizmi sifatida ko'rsatish, keyingi yillarda paydo bo'ldi, shuning uchun ham sifatni ta'minlashda rag'batlantirish tushunchasi mazmunini belgilab olish muhimdir. Avvalo bu muammoni xorijiy mamlakatlardagi ta'limning maqsad va vazifalarini belgilaydigan asosiy normativ - huquqiy hujjatlardagi innovatsion texnologiyalarni qo'llashning talablarini aniqlashtirish, dolzarb bo'lgan ilmiy - nazariy hamda intuitiv tasavvurlarni aniqlash bu muammoning ikkinchi tomoni bo'lib hisoblanadi. Innovatsion texnologiyalarni qo'llashda oliy ta'lim maqsadi, tuzilishi va samaradorligi, shartlari va mezonlari haqidagi nazariy tasavvurlarni qayta belgilash zaruriyati paydo bo'lmoqda.

Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq mamlakatimizda ta'limning barcha sohalarini, shu jumladan oliy ta'lim tizimini tubdan isloh qilish yo'li ishlab chiqildi. Chunki

mustaqil O'zbekiston Respublikasining jahondagi taraqqiy etgan davlatlar safidan o'ziga munosib o'rin egallashi uchun chuqur bilimli, ma'naviyati yuksak, komil insonlarni tarbiyalash, ta'limni isloh qilish eng zaruriy vazifalardan biri qilib belgilab qo'yildi. Keltirilganlarni inobatga olgan holda ushbu magistrlik dissertatsiya ishi mavzusi dolzarb masalalardan biriga bag'ishlanganligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi.

Respublikamiz ijtimoiy-iqtisodiy va ma'rifiy sohalarida amalga oshirilayotgan modernizatsiyalash jarayonlari uzluksiz ta'lim tizimiga ham bevosita ta'sirini ko'rsatmoqda. Bu o'z navbatida, zamonaviy ta'lim muhitining muhim tavsifi hamda shaxs imkoniyatlari muvaffaqiyatli amalga oshirilishining sharti sifatida ta'lim paradigmalarini takomillashtirish, uning tarkibiy qismlari funksional va konseptual muammolari yechimini ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

Ta'lim muassasalari faoliyatining asosiy turi bo'lib ta'lim xizmatlarini yaratish sanaladi. Bu ta'lim xizmatlarini ta'riflashning yetarlicha keng doiradagi miqdorlari mavjuddir.

Birinchidan, ta'lim xizmati - bu o'quv-pedagogik faoliyatdir. Ikkinchidan esa, ta'lim xizmati - bu ta'lim muassasasi tomonidan iste'molchining ishchi kuchi qiymatini oshiruvchi va uning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini ta'minlovchi. Uchinchidan, ta'lim xizmati - bu shaxs, jamiyat va davlatning turli xildagi ta'limiy ehtiyojlarini qondirish maqsadlarida foydalaniladigan bilimlar, axborotlar, mahorat va ko'nikmalarning tizimidir.

Raqamli iqtisodiyotning shart-sharoitlaridan biri oliy ta'lim tizimiga ham yangi talablarni qo'yimoqda.

O'zbekiston Respublikasida milliy ta'lim tizimi asosida uzluksiz ta'limni ta'minlashning asosiy vazifasi xalqaro standartlar talabi asosida sifatli mutaxassislarni tayyorlashning innovatsion mexanizmlarini yaratish va rivojlantirishdir. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, ushbu maqsadlarni ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llashga asoslangan yangi innovatsion ta'lim texnologiyalarini tatbiq etmasdan amalga oshirish mumkin emas.

Raqamli iqtisodiyotga o'tish ta'lim xizmatlari sifatiga yangi talablarni qo'yib, oliy ta'lim tizimining rolini o'zgartiradi. Ayni paytda dunyoning yetakchi davlatlari tomonidan inson kapitalini shakllantirishda va to'plashda ta'limga muhim ahamiyat berilmoqda. Chunki ta'lim davlatning intellektual salohiyat darajasini belgilaydi.

O'zbekistonda ta'lim sohasi muhim va rivojlanayotgan soha hisoblanib uning asosiy maqsadi ta'limni barqaror rivojlantirish, sifatli va xalqaro standartlarga mos keladigan mutaxassislar tayyorlashdan iborat.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, bu maqsadlarga birinchi navbatda zamonaviy axborot texnologiyalariga asoslangan pedagogik texnologiyalarni joriy etish orqali erishish mumkinligini ko'rsatadi.


Oliy ta'lim muassasalarida innovatsion jarayon ta'lim muhitida tegishli islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirishni taqazo etadi. Yangilik (innovatsiya) sotib olingan yoki shaxsiy ishlov bo'lishi mumkin, shu bilan birga u sotish uchun yoki shaxsiy korxonada ishlatish uchun qo'llaniladi.

Kadrlar tayyorlash sohasida innovatsiya yangi o'quv dasturlar, o'quv rejalar va o'quv-uslubiy materiallar, yangi pedagogik, axborot va tashkiliy texnologiyalar yoki ularning birikmalari, yangi ta'lim texnologiyalari, tashkilotning yangi holati va hokazo ko'rinishda (shaklda) bo'lishi mumkin.

Oliy ta’lim muassasalari uchun yangiliklarni faqat ishlab chiqish (tadqiqot natijalarini olish, dasturlar loyihalash va hokazo) muhim emas, balki eng asosiysi ushbu yangiliklarni joriy qilish, uni innovatsiyaga aylantirish, ya’ni innovatsion faoliyatni yakunlash va ijobiy natija olish.

Yangiliklar ham yangi mahsulot ko’rinishida bo’lishi - ta’lim dasturlari, ham ta’lim jarayonida foydalaniladigan yangi texnologiyalar ko’rinishida bo’lishi mumkin ya’ni yangi tashkiliy texnologiyalar, ta’lim xizmatlarini targ’ib qilishning yangi usullari.

Oliy ta’limda “innovatsion faoliyat” - bitiruvchilarni yangi ta’lim xizmatlari asosida o’qitishning mazmunini yangilash, ta’lim jarayonining tashkiliy texnologik asoslarini maqsadli to’ldirish, o’quvchilarni har tomonlama shaxsiy va malakaviy bilim ko’nikmalarini yangilash va yangi texnologiyalar asosida ta’lim sifatini oshirish jarayonidir.



1- rasm..Innovatsiyalarning shakllanish bosqichlari


Shuningdek oliy ta’lim muassasalarida innovatsion jarayon - ta’lim sohasida yangiliklar asosida ta’lim mazmunini tubdan bosqichma-bosqich amalga oshirish jarayoni hisoblanadi.

Innovatsiya moddiylashgan natijani o’zida aks ettirib, yangi texnologik jarayonga, texnik vositaga, uskuna va jihozga, yangi mahsulotga, xizmat turiga, ishlab chiqarishni tashkil etish shakliga, yangi mehnat turiga, boshqarishga, axborotlar tizimiga sarflangan kapital mablag’lar tufayli korxonaning ishlab chiqarish tijorat faoliyati integral natijasini, ya’ni iqtisodiy o’sishni ta’minlaydi. 1-rasmda innovatsiyalarning shakllanish bosqichlari keltirilgan.

Innovatsiyalar korxonalar raqobatbardoshligini ta’minlashda tannarx, sifat, mehnat unumdorligidan keyin to’rtinchi o’rinda turadi.

Innovatsiyalar mohiyati uning funksiyalarida o’z aksini topadi. Innovatsiya funksiyalari korxonaning ishlab chiqarish va tadbirkorlik faoliyatida muhim rol o’ynaydi. Ayniqsa korxonaning raqobatbardoshligini oshirishda innovatsiyalarning o’rni beqiyosdir.

Oliy ta’lim muassasalarida innovatsion faoliyat quyidagi mexanizm asosida amalga oshiriladi (2-rasm):



2-rasm. Innovatsiyalarni amalga oshirish mexanizmi

Innovatsiyalar uchta asosiy funksiyalarni bajaradi:

1. Qayta ishlab chiqarish;
2. Investitsion faoliyat;
3. Rag'batlantirish.

Ushbu funksiyalarni bajarish uchun tashkilotlar mavjud innovatsion mexanizmlardan foydalanadi.

Oliy ta'lim muassasalariga har qanday yangilik kiritishning asosiy maqsadi ta'lim sifatini yaxshilash deb ta'kidlash lozim. Zamonaviy ta'lim muhiti 2 turdagi pedagogik jarayondan iborat - an'anaviy va innovatsion.

Pedagogik innovatsiyalar - ta'lim xizmatlarida makro, mikro va mezodarajada qo'llaniladigan nazariy asosga ega, maqsadli, amaliy asoslangan yangi ta'lim berish usullaridir.

Ta'lim xizmatlarida innovatsiyalar 5 bosqichda rivojlanadi.

Birinci bosqich - ta'lim xizmatlarini taqdim etishda ma'lum turdagi innovatsiyalarni qo'llash yoki yangiliklarni qo'llash zarurati yuzaga chiqadi. Bunda OTM rahbariyati, yoki jamiyat ta'lim xizmatlarini yangi turlariga ehtiyoj sezganda, tashkilotni istiqbolli rejalarini tuzilganda yoki modernizatsiya qilish dasturi asosida 1-bosqich yuzaga keladi.

Ikkinchi bosqich - nazariy bo'lib, u ko'pincha pedagogik-psixologik taxlil asosida innovatsiyalarni o'zlashtirish yoki asoslash asosida boradi. Ushbu bosqich eng qiyin va ma'suliyatli bo'lib, aynan shu bosqichda innovatsiyalarni qo'llash yoki qo'llamaslik masalasi hal bo'ladi. Shu bilan birga bu bosqich qo'llash rejalashtirilayotgan innovatsiyalarning axborot ta'minotini ta'minlab beradi. Aynan shu bosqichdagi muhim qarorlar pedagogik faoliyatda innovatsiyalarni qo'llashning muvaffaqiyatini ta'minlab beradi.



Uchinchi bosqich - tashkiliy-amaliy bosqich bo'lib, unda oliy ta'limda innovatsiyalarni qo'llash uchun kerakli tashkiliy va amaliy muhitni shakllantirish va yangiliklarni qo'llash imkonini beradi. Bunda tashkiliy ishlardan ko'pincha tajriba guruhlari, laboratoriya va eksperimental xonalar, kerakli asbob-uskunalar, o'quv jihozlari va texnika vositalari bilan ta'minlanadi.

To'rtinchi bosqich - tahliliy bosqich bo'lib - qo'llanilayotgan yoki tajriba qilinayotgan innovatsion loyiha yoki modelni tahlil qiladi va dastlabki natijalar tahlilini olib boradi. Ushbu bosqichda innovatsion jarayon qanday amalga oshayotgani, uni qaysi darajada - bir fan darajasida, yo'nalish yoki butun bir OTM o'quv jarayonida qo'llash ishlari aniqlanadi.

Beshinchi bosqich - tatbiq etish bosqichi bo'lib, bu balki tajribaviy bo'lishi, dastlabki natijalardan so'ng to'liq amalga oshirilishi mumkin.

Ushbu bosqich innovatsiyalarning samaradorligini va yutug'ini belgilab beradi va quyidagi 3 omilga bog'liq bo'ladi:

-innovatsion texnologiyalar qo'llayotgan ta'lim muassasasining moddiy-texnik bazasi holatiga bog'liq bo'ladi;

-rahbarlar va pedagoglarning kvalifikatsiyasi, ularning innovatsion moyilligi, yangiliklarga bo'lgan munosabati va ijodiy faolligiga bog'liq bo'ladi;

-ta'lim muassasasi jamoasini ma'naviy va axloqiy muhiti bilan bog'liq bo'ladi.

Uzluksiz ta'lim tizimida har tomonlama yetuk, ijodkor shaxsni tarbiyalash, talabani uzluksiz rivojlantirish uchun ta'lim-tarbiya jarayonining barcha bosqichlarida pedagogik tizimning tarkibiy qismlari o'zaro aloqadorligi, muvofiqligi hamda istiqbolga yo'naltirilganligini ta'minlash hamda ularni amalga oshirishning didaktik shart-sharoitlarini aniqlashni taqozo etadi.

Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan uzluksiz ta'lim tizimida uzviylikni ta'minlash milliy dasturda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ustuvor ahamiyat kasb etib, ta'lim tizimining vertikal va gorizontal uzviyligini ta'minlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish borasidagi ilmiy tadqiqotlarni jadallashtirishni talab qiladi.

Ta'lim uzluksizligini ta'minlashning bosh g'oyasi talaba shaxsining ta'lim subyekti sifatida izchil rivojlanib borishi bilan bog'liq. Kadrlar tayyorlash milliy modelida bu g'oya rivojlantirilib, shaxs kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekti va obyekt, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi sifatida e'tirof etilgan. Respublikamizda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlarida shaxsning rivojlanishi uzluksiz jarayon sifatida qaralib, unda o'quv jarayonining faqat bilish emas, balki o'zlashtirilgan bilimlarni ijodiy talqin qilishni nazarda tutuvchi rivojlantiruvchi ta'lim g'oyalari bilan uyg'unlashgan.

Respublikamizda uzluksiz ta'lim tizimini ishlab chiqishda milliy ta'lim modeli ilmiy yondashuvining o'ziga xos xususiyati shundaki, uzluksiz ta'lim tizimi yaxlitlik, uzviylik va uzluksizlikda, ya'ni bir butun tizim shaklida qaraladi. Uzviylik va uzluksizlik ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillaridan biri sifatida belgilanib, pedagogika nazariyasida uni ifodalovchi tizimlilik va izchillik ta'limning metodologik asosini tashkil qilishi bilan birga didaktik prinsip sifatida ham alohida qayd etilgan. Ta'limning uzviyligi - ta'lim mazmunining tizimlilik, izchilligi va mantiqan bog'liqligi ta'minlanishini, talabalar o'zlashtirgan bilimlarning keyingi bosqichlarda ko'nikma va malakalarga o'tishiga asos yaratuvchi, ta'limning har bir

bosqichida ma'lum darajada bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishni ta'minlashni talab qiluvchi didaktik prinsipdir. Uzviylikning mohiyati har bir shaxsga o'ziga mos bilim olish sharoitlarini yaratib bera oladigan ta'limga bo'lgan shaxs va jamiyatning ehtiyojlarini qoniqtirish zarurati bilan belgilanadi.

Bugungi kunda mamlakatimiz ta'lim muassasalarida o'quv, tarbiyaviy, boshqaruv hamda investitsion faoliyat Kadrlar tayyorlash milliy dasturining to'la ijrosini ta'minlashga qaratilgan. Bularning barchasi tuzilmaviy o'zgarishlarni davlat ta'lim muassasalari rivojlanish dinamikasi, uzluksiz ta'lim va kadrlar tayyorlashni boshqarishning samarali tartibini joriy qilish, ta'lim sifatini nazorat qilish tizimini shakllantirishni talab etadi.

Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan uzluksiz ta'lim tizimida uzviylikni ta'minlash milliy dasturda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ustuvor yo'nalishlarni belgiladi.

Ta'lim-tarbiya jarayonining barcha bosqichlarini qamrab oluvchi uzluksiz ta'lim tizimi har tomonlama yetuk, barkamol avlodni yetishtirish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratadi. Uzluksiz ta'lim deganda - talaba shaxsini uzviy rivojlantirish maqsadida har bir ta'lim bosqichida pedagogik tizimning barcha tarkibiy qismlarining o'zaro muvofiqligi, istiqbolga yo'naltirilganligi tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplaridan biri sifatida uzluksiz ta'lim kadrlar tayyorlash tizimining asosi, respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor soha ekanligi, ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy barkamol shaxsning shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishi, davlat ta'lim standartlariga muvofiq turli darajalardagi ta'lim dasturlarining izchilligi ta'minlanishi va maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim, kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash hamda maktabdan tashqari ta'lim turlarini o'z ichiga olishi takidlanadi.

Pedagogikada ta'limning ilmiy-nazariy, uslubiy asoslari bilan bir qatorda ta'limning didaktik prinsiplariga ham alohida to'xtalib o'tiladi. Ularga ta'limda ilmiylik, tizimlilik va izchillik, onglik va faollik, bilimlarni puxta va mustahkam o'zlashtirish, o'quvchilarni yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olish, ko'rgazmalilik, nazariyani amaliyot bilan bog'liqligi, mustaqillik va erkin fikrlash hamda tafakkur qilish kabilar kiritiladi. Ta'lim-tarbiya jarayonida uzviylik va uzluksizlik fan, ta'lim va ishlab chiqarishning o'zaro uzviyligi; ta'lim mazmuni uzviyligi; bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdagi uzviyligi; o'quvchi shaxsini shakllantirishdagi uzviylik; ta'lim metodlari hamda shakllarini qo'llashdagi uzviylik; o'quvchilar o'zlashtirishini baholashni tashkil qilishdagi uzviylikni ta'minlaydi.

Ushbu talablardan kelib chiqib, umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim tizimi o'rtasidagi ta'lim-tarbiya jarayoni Davlat ta'lim standartlari, o'quv rejalari hamda dasturlarni ishlab chiqishda o'zaro uzviylikni ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Bu maqsadda variativ o'quv dasturlari hamda darslik va o'quv qo'llanmalarni yaratishda umumiy o'rta, o'rta maxsus hamda oliy ta'lim tizimi pedagoglarining hamkorligini takomillashtirish talab etiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATIGA:**

71. Alikulov, A. I., & Bakhriev, M. (2023). IMPROVING THE ACCOUNTING OF THE COSTS OF MODERNIZATION AND REPAIR OF KEY EQUIPMENT IN AGROCLUSTERS. *International Journal Of Literature And Languages*, 3(11), 14-19.
72. Alikulov, A. M., & Toshpulatov, J. (2023). Agroklasterlarda moliyaviy natijalar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish masalalari.
73. Alikulov, A. I., & Bakhriev, M. (2023). IMPROVING THE ACCOUNTING OF THE COSTS OF MODERNIZATION AND REPAIR OF KEY EQUIPMENT IN AGROCLUSTERS. *International Journal Of Literature And Languages*, 3(11), 14-19.
74. Аликулов, А. И. (1993). Совершенствование учета затрат на производство, переработку и исчисление себестоимости продукции хлопка-сырца в хлопковом комплексе (на примере хлопководческих хозяйств и хлопкоочистительных заводов Самаркандской области).
75. Эшмуратов, У. Т. (2022). СОТИШ ЖАРАЁНЛАРИНИНГ МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТНИНГ ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАРИ БЎЙИЧА ТРАНСФОРМАЦИЯСИ МАСАЛАЛАРИ. *Архив научных исследований*, 2(1).
76. Tashmuratovich, E. U. (2023). IMPROVEMENT ACCOUNTING OF PROCESS REALIZATION IN FARM ENTERPRISES. *JOURNAL OF VETERINARY SCIENCE*, 6(5), 20-28.
77. Olimjonovna, J. R. D., & Tashmuratovich, E. U. B. (2023). AGROKLAsterLARDA KAPITAL SARFLAR HISOBINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI. *MASTERS*, 1(1), 112-118.
78. Ixtiyorovich, Q. L. A., Shavkat o'g'li, I. R., & Tashmuratovich, E. U. B. (2023). XARAJATLAR HISOBIDA QO 'LLANILADIGAN ATAMALAR MOHIYATI TAHLILI VA ULARNI TIZIMLASHTIRISH. *MASTERS*, 1(1), 127-131.
79. Eshmuratov, U. B. (2023). Sotish jarayonlari hisobini buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari asosida takomillashtirish.
80. Mardiyevna, S. G., & Abdusamatovich, J. J. (2022). SANOAT 4.0 KONSEPSIYASI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI RISKLAR. *Current Issues of Bio Economics and Digitalization in the Sustainable Development of Regions (Germany)*, 712-721.
81. Пардаева, О. М., & Жавманов, Ж. А. (2023). СНИЖЕНИЕ УРОВНЯ БЕЗРАБОТИЦЫ ПУТЕМ ВОВЛЕЧЕНИЯ НАСЕЛЕНИЯ НА САМОЗАНЯТОСТЬ. *PEDAGOG*, 6(4), 568-574.
82. Жавманов, Ж. А., & Уралов, Б. М. (2023). Методология оценки и измерения бедности населения. *Pedagog*, 6(11), 237-246.
83. Abdusamatovich, J. J. (2023). THE POPULATION WISHES FOR POVERTY REDUCTION AND EMPLOYMENT. *JOURNAL OF ECONOMICS AND BUSINESS MANAGEMENT*, 6(5), 26-38.

84. Жавманов, Ж. А., Хотамов, А. А. У., & Амонов, С. Т. У. (2023). ПЕРСПЕКТИВЫ ИЗВЕДЕНИЯ НАСЕЛЕНИЯ ОТ БЕДНОСТИ. JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY BULLETIN, 6(5), 193-203.
85. Жавманов, Ж. А., & Муродкулов, Ж. Х. (2023). ФАКТОРЫ БЕДНОСТИ В СТРАНАХ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ. PEDAGOG, 6(11), 247-254.
86. Жавманов, Ж. А. (2023). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОПРЕДЕЛЕНИЯ КРИТЕРИЕВ БЕДНОСТИ. JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY BULLETIN, 6(5), 306-318.
87. Kozimbek G'anijon o'g, M., & Abdusamatovich, J. J. (2023). KAMBAG'ALLIKNI BARTARAF ETISHNING XORIJIY TAJRIBALARI VA UN DAN MAMLAKATIMIZDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI. JOURNAL OF VETERINARY SCIENCE, 6(5), 1-11.
88. Erkin o'g, D. S. M., & Abdusamatovich, J. J. (2023). KAMBAG'ALIKNI BARTARAF ETISH BO'YICHA ERISHILGAN NATIJALAR. JOURNAL OF VETERINARY SCIENCE, 6(5), 12-19.
89. Жавманов, Ж. А., Уралов, Б. М., & Очилова, М. Т. (2024). ФИНАНСОВО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ РЕАЛИЗАЦИИ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(26), 240-250.
90. Makhmudovich, U. B., Abdusamatovich, J. J., Tashtemirovna, O. M., & Ugli, F. U. K. (2024). TAXATION OF INDIVIDUAL ENTREPRENEURS AS A FORM OF STATE REGULATION OF SELF-EMPLOYMENT. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(26), 232-239.
91. Abdusamatovich, J. J., Makhmudovich, U. B., Tashtemirovna, O. M., & O'g'li, F. U. X. (2024). O 'ZBEKISTONDA INNOVATSION IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING GLOBAL TENDENSIYALARI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(26), 222-231.
92. Жавманов, Ж. А., Уралов, Б. М., Очилова, М. Т., & Файзуллаев, У. Х. У. (2024). НАЛОГООБЛОЖЕНИЕ ИНДИВИДУАЛЬНЫХ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЕЙ КАК ФОРМА ГОСУДАРСТВЕННОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ САМОЗАНЯТОСТИ. SO'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 7(1), 369-378.
93. Очилова, М. Т., Уралов, Б. М., Жавманов, Ж. А., & Файзуллаев, У. Х. У. (2024). РАЗРАБОТКА МОДЕЛИ РАЗМЕЩЕНИЯ И СПЕЦИАЛИЗАЦИИ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА В РЫНОЧНОЙ ЭКОНОМИКЕ В САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ. SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 7(1), 379-386.
94. Уралов, Б. М., Очилова, М. Т., Жавманов, Ж. А., & Файзуллаев, У. Х. У. (2024). СОСТОЯНИЕ РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ. SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 7(1), 387-395.
95. Ilyos, A., & Uralov, B. Investment Strategy as a Factor of Innovation in Uzbekistan. JournalNX, 453-456.



96. Uralov, B., & Ishturdiyev, H. (2023). O 'zbekistonda hududlar kesimida raqamli iqtisodiyotning rivojlanish holati.
97. Maxmudovich, U. B., Baxtiyorovich, B. M. Z., & Ikrom o'g'li, A. H. (2024). RAQAMLI IQTISODIYOTNI AMALGA OSHIRISHNING MOLIVAVIY IQTISODIY MEKANIZMLARI. JOURNAL OF ECONOMICS AND BUSINESS MANAGEMENT, 7(1), 52-62.
98. Иштурдиев, Х. А. (2023). Совершенствование учета финансовых результатов в агрокластере. Научный Фокус, 1(7), 700-708.
99. Murodovich, G. R., & Hassan, I. (2023). IMPROVEMENT OF ACCOUNTING AND AUDIT OF FINANCIAL RESULTS IN BUSINESS ENTITIES. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(4), 1586-1592.
100. Uralov, B., & Ishturdiyev, H. (2023). O 'zbekistonda hududlar kesimida raqamli iqtisodiyotning rivojlanish holati.
101. Yuldashev, S., & Ishturdiyev, H. (2023). Qishloq xo'jalik korxonalarida xarajatlar hisobi va mahsulot tannarxini takomillashtirish masalalari.
102. Гайбуллаев, Р. М., & Иштурдиев, Х. (2023). ХЎЖАЛИК ЮРИТИШ СУБЪЕКТЛАРИДА МОЛИЯВИЙ НАТИЖАЛАР ҲИСОБИ ВА АУДИТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. World of Science, 6(4), 345-351.
103. Абдигаппарович, И. Ҳ., & Юлдашев, Ш. Х. (2024). ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ УЧЕТА ЗАТРАТ И СТОИМОСТИ ПРОДУКЦИИ НА СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ. SO'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 7(1), 361-368.
104. Narziyeva, G., & Raximova, U. (2023). Superior directions, modern trends and prospects for the development of the financial market.